

## **19 – 18 asr iqtisodiy va tujjoriy munosabatlar**

Buxoro bilan Rusyaning tijorat munosabatlari bir qancha mumonaatlar ko'rindi. Ikki oradag'i masofaning yiroqlig'i, o'rtada qozoqlarning bo'lувчилиг'i po'shlina masalalari bir qancha – bir qancha to'siqliqni tug'diradi.

Po'shlina masalasida O'rta Osiyo xonliqlarida ikki xil olish bor, musulmonlarda qirqdan biri, yohud 21/2% foiz oling'oni holda, g'ayri dinlardan yigirmadan biri, yohud 5 % foiz olinadi, shu xususda o'ris savdogarlari tomonidan bir qancha shikoyatlar bo'lsa ham iltifot etilmagan. Musulmonlar bilan o'rislarni bir tekis qilishg'a xonlar unamagan. Ko'prok shikoyat qilg'on vaqtida "nimaga kelasan, keta ber" deb ayta turg'on bo'lг'onlar.

Shunday ham bo'lг'oni holda tijorat munosabati tuzulgon emas, to'xtovsiz davom etib turg'on. Urush savdo sarmoyasi turli muahadalar bilan Kichik O'rdaqozoqlarining oyoq qo'lin bog'lag'ondan so'ng O'rta Osiyo bilan savdoni yana jonlandiradi.

O'rta Osiyo xonliqlari orasida xorijiy davlatlar aloqasi katta bo'lг'oni Buxoro xonlig'idir. Bu faqat, Rusiya bilangina emas, balki boshqa davlatlar bilan ham aloqasi bor. Bunda har tomondan mol keltiriladi. Hindiston, Afg'oniston, Eron, Sharqiy Turkiston, qozoqlardan va qo'shni xonliqlardan doimo kirgizilib turiladi. Bularning har birisidan qancha miqdorda ekanini qat'iy aytish qiyin, faqat, Rusiya bilan Hindiston keltiraturg'onini bir qadar ta'yin qilish mumkin.

20 asrning qirqinchı yillarda turli mamlakatlardan Buxorog'a yil sayin 12-15 ming tuya mol kelturilgan. Bu taqriban 270000 put bo'ladi. Buni bu kungi tijorat munosabatlari bilan qiyos etganimizda, Buxoroning u vaqtgi tijorati g'oyat mahdud ahamiyatsiz ekani ko'rindi. Boshqalarg'a qarag'anda Rusiya bilan bo'lг'on munosabati yildan yil o'sa boradi. Uruslar qozoq sahrolarin, savdo yo'llarini tinchitib, O'rta Osiyo bilan to'g'ridan-to'g'ri qo'shni bo'lг'ondan so'ng bu ikki mamlakat o'rtasida aloqa kuchaydi.

1828 yilda Rusiyadan Buxorog'a kirgan tovar 1180600 so'm, 66 tiyinga yetdi, 38 yilda 2 yarim miliong'a, 40 yilda 3,283,654 so'm bo'ladi. Bu tovarlar yuqorida yozg'onimizcha fabrik, zavodlarning ishlab chiqazg'on narsalaridir.

Buxoroning Rusiyag'a chiqaradig'on narsalari ham ko'paya boshlaydi. Buxorodan Rusiyag'a har yili 5-6 ming tuya tovar keltirilgan. Buni hisoblag'onimizda 6480000 so'm turadi. Bundan ko'rila'diki, Buxoroning chiqarg'oni Rusyanikidan ko'p, baho jihatidan ustun bo'lг'on. Rusyaniki 3 milliondan ozg'ina ortiq bo'lг'oni holda Buxoroning 6 milliondan ortqoni ko'rindi. Chunki, Buxoroning belbog', chopon, katak, shol, ipak kabi tovarlari Rusiya doxilidag'i musulmonlari orasida ko'prak iste'mol qiling'on. Bular fabrika chitlariga qarag'anda Buxoroning mazkur narsalarini ko'prak olg'onlar. Fabrik mollarig'a qarag'anda hamda chidamli bo'lг'ong'a ko'prak tarqalg'on.

20 asrning 40 yillarida Buxorodan Rusiyaga quydag'i tovarlar chiqarilg'on: paxta, paxta ipi, gurunch, qurutilg'on meva, xom ham bo'yalg'on ipak, rang, bo'yalg'on, yoki bo'yalmag'on bo'z, ipak va bumazi choponlari, to'ypi, belbog', ro'ymol, shol, hayvon terlari, feruza kabi qimmatli toshlar va boshqalar chiqarilg'on. Bular orasida fabrikalar uchun mavhum o'lг'oni shubhasiz, paxta va bundan ishlangan ipdir.

1840-1850 yillarda ya'ni o'n yil ichida Buxorodan Rusiyaga quydag'i tovarlarning chiqarilg'oni ko'rindi:

	So'm	tiyin
1) Paxta ham paxta ipi	2,22,181	46 ½
2) Meva 171,898	47	
3) Javohir ham marvarid	119,040	60
4) Bumazi tovar	3,324,418	52
5) Ipak va yarim ipakdan ishlangan materiallar	116,288	85
6) Qolin, gilam, chakmanlar	8,816	10
7) Qorako'l	833,824	10
8) Har xil hayvon terilari	176,905	67
9) Kiyimlik shohi	6,268	
10) Kashmir shali ham ro'ymol	161,616	55
11) Bo'yog'	49,010	48
12) Dormona	10,904	30
13) Gurunch	5,794	75
14) Echki juni	1,103	
15) Choy	3,548	
16) Har xil tovarlar	98,628	59
Jam'isi	7,309,248	s. 16 t.

Shulardan Buxorodan chiqadig'on narsalarning nav'i ko'p ekani ko'rindi. Kashmir sholi, bo'yog', choy, javohirlardan boshqalari Buxoro mamlakatida yetishtiriladig'an tovarlardir.

Bu tovarlar orasida eng ko'pi bumazi tovar, paxta qorako'ldir. Keyingi tomon paxta juda qimatlanadi. 47-48 yillarda Toshkentda bir tuyu paxta 9-10 tilla turg'on. Ammo 50 yillarda juda o'sadi. Bir tuyu paxta 20 tilla, balki ortug'roq ham bo'lg'on. Buxoro bozorlarida ham bir tomon (8 put) paxta to'rt tilla bo'lg'oni holda, 50 yillarda o'n tilla chiqadi. Buning bu daraja o'sishiga sabab yildan yil kam ekilishi, dehqonchilik ishlarining yildan yil zaiflana borishidir. Mamlakatdagi isyonlar, qabila kurashlari sababli dehqonchilik ishi juda yomon holda bo'lg'on.

Dehqonchiliq ishining juda fano holda bo'lg'onini va uning sababini dasturulmuluk egasi juda ochiq yozadi: "bo'lub o'tmish hokimlarina zulmi, bir to'xtovsiz kelib turg'on o'lpon ishlari dehqonchilikning kamayishiga, fuqaroning taralib, qochib ketishlariga sabab bo'ldi" deydir. Bu o'sish yildan yil orta borg'on, masalan, 1840 yilda Buxorodan 29,380 put paxta chiqarilg'on holda, 49 yilda esa 1488 put 10 qadoq paxta chiqarilg'on. Demak o'n yil badalida 28,892 put 30 qadoq kamaygan. O'n yilning badalida Buxoro hammasi bo'lib 130,000 put paxta bergen. Buning majmua summasi 645,000 so'm bo'ladi.

Paxtadan yigirilgan ipning ahamiyati ham zo'r bo'lg'on. Bu Rusiyaga faqat, Buxorodan kirgan. Buning eng ingichkasi fabrikalarda qo'moch, chit to'qish uchun iste'mol qiling'on; Bu Angliyanikidan ustun bo'lg'on.

Shu yigirilgan ip o'n yil ichida 139,262 put chiqarilg'on. Buning mavhum bir qismi fabrikalarga ketgani kabi, boshqalari Idil bo'yi musulmonlari orasida tarqalg'on. Bundan har xil narsalar o'qug'onlar. Buxoroning xorijiy bozorda

mavhum o'run tutqon tovarlarning birisi qorako'ldir. Bu turli mamlakatlarga tarqalg'on. Eng ko'p chiqazilg'on yeri Rusiyadir.

40-49 yillar orasida hammasi bo'lub 488,380 dona qorako'l chiqarilg'on. Buning summasi 390,031 so'm bo'lg'on. Buning chiqazilishi ham yildan yil kamaya borg'on. 40 yilda 54,578 dona chiqazilg'oni holda 49 yilda 22,920 donag'a qolg'on.

Yuqorida yozg'onimizcha o'lkadagi tinchsizliqlar dehqonchiliq ishining harob bo'lishig'a sabab bo'lg'oni kabi, umuman tijorat ishining keyinga ketishiga ham katta sabab bo'lg'on. Shuning natijasida xorijg'a tovar chiqazilish yildan yil kamaygan. Boshqa tovarlar qatorida quruq meva ham chiqazilg'on. Bu birinchi o'runda turmasa ham 19 asrda boshqa tovarlar qatorida chiqarilib turg'on ko'rinadi. Mazkur o'n yilning yilda 80,709 put, 6 qadoq chiqarilg'on. Bahosi 171, 898 so'm, 47 tiyin bo'lg'on.

Bu vaqtlar mamlakat doxilida tinchsizliq bo'lg'oni kabi xorij bilan ham munosabatlar yaxshi emas. Xiva, Farg'ona bilan ikki ora urush holatida bo'lub, bular bilan bo'lg'on tijorat aloqalari ham yaxsh emas. Xususan Xiva bilan munosabatning nochor bo'lувchilig'i Rusiya bilan bo'lg'on savdo munosabatiga bir qadar ziyon keltiradi.

Po'shlina masalasining og'irliq ustiga kelgan savdogarlarning hamma tovarlarini zakotchi ochib qarab eng yaxshi nodir ko'ringan tovarni amir uchun oladilar.

Bu xususida savdogarning ruxsati lozim emas, balki, bu ish majburiydir. Shuning bilan birga tamujna boshliqlari va boshqa mansab ahillarining ko'nglini topish zarur.

Buning ustiga amir ko'p vaqtida savdogarlarga soliq soladi. Ketishga tayyorlanib turg'on savdogarlarga bir qancha ming tilla soliq solib o'z xazinasiga oladi.

Amir, yoki xon mamlakatning eng boy kishisi hisoblanadi.

Amirning pulini ishlatguvchi gumashtalari ham bo'ladi. Bular o'zlariga ziyon bo'lsa ham, bir narsa demaydilar. Chunki, qanday qilib bo'lsa ham, amirga yaqinliq qilish, shu yo'l bilan biron mansabga erishish fikrida bo'ladilar. Amirning tijorat odamlari shubha yo'q boshqa savdogarlardan kam bo'lmaydi, bular o'zlarining ko'rgan ziyonlarin ikkinchi yo'l bilan to'lg'ozadilar. Biron mansabga ega bo'lsalar, xalqni xohlagancha talaydilar.

Amirning savdo odamlari bo'lg'oni kabi boshqa savdogarlarning ham shunday odamlari bo'ladi. Boylardan pul olib ishlatish albatta yengil emas, boylar tovarni bozor narxi bilan beradi, buning ustiga olg'on tovar yoki pulni 30% bilan beradi. Bir savdogar katta boydan yuz tilla olib ishlatar ekan, u kishi qaytib kelgandan so'ng 130 tilla qilib berishi lozim.

Buxoroning boshqa xonliqlar bilan munosabati yuqorida so'ylaganimizcha juda zaif doimo urushib talashib turg'ong'a kundan kun nochorlanmasa, tuzalgan emas.

Yorkend, Qashqar bilan ham tijorat munosabatlari burun burundan beri davom etib keladi. Lekin mang'itlar vaqtidag'i munosabatlarin eski, yiroq asrlar bilan qiyos etib bo'lmaydi. Keyingi vaqtida shubha yo'q kamaygan, birdan bu

o'lkaning o'zidagi to'polonlar mone' bo'lsa, ikkinchidan Xitoy hukumati Yorkand bilan Koshg'ardan nari o'tishga ruxsat etmaydi. Shuning uchun butun Sharqiy Turkiston bilan savdo munosabatlari bo'lmasdan ba'zi shaharlar bilangina aloqa bo'lg'on.

Buxoroning sharqiy Turkistondan oladig'on narsalari 6 chinni kosa, piyola, qimmatli ma'danlar, xususan kumush ko'prak keltirilgan hamda choy oling'on. Farg'ona bilan Xitoy hukumatining orasi nochor bo'lg'anig'a, Farg'ona orqali savdo karvonlari Koshg'arg'a o'ta olmag'anlar. Balx, Badaxshon, Pomir yo'li bilan yurganlaryu. Farg'ona yo'li qisqa 45 kunlikgina, ammo Badaxshon yo'li 65 kun yurishga to'g'ri keladi.

Buxoro umuman O'rta Osiyo zonliqlarining yuqorida so'ylaganimiz tovarlardan xorij, joxiliy va xorijiy tijorat munosabatlarida yana bir muhim bir tovarlar bor, bu esa qul sotishdir. Qulluqning O'rta Osiyo bozorlarida muhim o'rni bor. Qullar Xuroson bilan Rusiyadan keltiriladi. Xususan Xurosondan ko'prak chiqoriladi. Turkmanlar Xurosonga hujum etganlarida qo'lg'a tushgan eronilarni bola chaqasi bilan olib kelib bozorda sotadilar. Islom shariatida musulmonni qul qilib sotish mamnu', ammo shialar musulmon hisoblanmaydilar. Bularni qul qilib sotish durust, ruslarni sotish qanday bo'lsa, bularni ham sotish shundan joiz hisoblanadi.

Buxoro ulamolari buning durustligi to'g'risida ko'p fatvo bergen. Eron ulamolari bilan Buxoro ulamosi orasida bu haqda ko'p mojarolar bo'lib o'tgan.

O'rta Osiyo xonliqlarining tijorat munosabatlarini tekshiruvchi Yanbulsin (Nebolsin) Xivaning sharqiy Eron Mashhad bilan savdo munosabati to'g'risida so'y lab kelib, bu viloyatlardan ya'ni sharqiy Erondan Xivag'a chiqariladig'on tovarlar: chit, bumazi poloniq, sukno, odam deydi. Bu qul savdosi bilan maxsus kosib etuvchilar, bundan ko'p sarmoya yig'uvchilar bo'lg'on.

O'rta Osiyo xonliqlari orasida Xiva xonlig'i bu to'g'rida birinchi o'rinda turadi. Shimoliy Afg'onistondag'i Hirot va Maymana shaharlari va Buxoro shahrida maxsus qul iskiladi bo'lg'on.

Bularda ma'lum miqdorda qul yig'ilg'ondan keyin ikkinchi bozorg'a olib borib sotg'onlar.

Buning bahosi ham boshqa tovarlarning bahosig'a o'xshab ba'zan ko'tarilib, ba'zan tushib turg'on, shu vaqtlar Xiva, Buxoro bozorlarida qullarning bahosi quyidag'icha ko'rsatiladi:

### **Xivada:**

- 10-15 yoshda bo'lg'on qul 40 tilla
- 15-25 yoshda bo'lg'on qul 60 tilla
- 25-40 yoshda bo'lg'on qul 70-80 tilla

### **Qul xotin-qizlar:**

- 10-15 yoshda chiroyliq bo'lsa 70-80 tilla
- 15-25 yoshda bo'lg'on 50-60 tilla
- 25-40 yoshda bo'lg'on 40 tilla

**Buxoroda:**

10-15 yoshda bo'lg'on qul 35 tilla  
15-25 yoshda bo'lg'on qul 45-60 tilla  
25-40 yoshda bo'lg'on qul 80 tilla

**Qul xotin-qizlar:**

10-15 yoshda chiroqliq bo'lsa 70-80 tilla  
15-25 yoshda bo'lg'on 50-60 tilla  
25-40 yoshda bo'lg'on 40 tilla

Erning yoshi o'sgan sayin bahosi ham o'sadi,, ammo xotinning yoshi o'sish nisbatida bahosi kamaya boradi. Chunki, er dehqonchiliq va o'rishishlarida iste'mol qilg'onig'a, yoshda kattaligining ahamiyati bor, kuchlik va dehqonchiliq ishlarida ishlay olurliq, o'rishda ishtirok qilurliq bo'lishi zarur. Ammo, xotin-qiz bilingli bu ishlarda iste'mol qilinmaydi. Uy, hovli joy ishlaridagina ishlaydi, joriya manzilidagina iste'mol qilinadi. O'shaning uchun chiroqliq bo'lish, yoshda kichikligining ahamiyati zo'r.

Bu nullar ko'pincha sharqiy Eron – Xurosandan keltirilgan, Eronning bu qismi ko'p talofatga uchrag'on, bunda har bir qishloq zo'r, baland qurg'onlar bilan ihota qilinib oling'on. O'sha qishloqlarni talag'on vaqtarda qo'lg'a tushgan asirlarni O'rta Osiyo bozorlarida sotqonlar. Hatto, faqat, shu asir olish, qul qilish maqsadi bilan mazkur viloyatlarga hujum qilib turg'onlar. Mazkur viloyatlarning xaroblig'i va bularning ahvollarining nochorlig'i to'g'risida dombiri quydag'icha so'yaydi:

"Yaqinda o'rmonlari, o'tunlari ko'p bo'lg'on qishloqlar, sovuqdan ko'p o'ldilar, yonida tegirmoni bo'lган ba'zi qishloqlar un ortdira olmasdan ochiqliqdan o'ldilar, chunki, qo'rg'ondan tashqari chiqish qo'rinchli, chiqdik Iso talonchilar ushlab, oyoq, qo'lingni bog'lab otqa mindirdilar – da, Xiva tomong'a olib ketadilar. Shunda qul qilib sotadilar" deydi.

Demak, bundagi qishloqlarnining ahvoli juda fojiali bo'lg'on, qo'rg'ondan tashqari chiqish halok bo'lish bilan barobar, yaqinlaridag'i tegirmonga yoki, o'tung'a borg'anlarida bir qancha odam yig'ilib, qurollanib boraturg'on bo'lg'onlar.

U vaqt Xiva xonlig'ining Xurosandan oladig'on tovarlarning muhim bir qismini o'sha nullar tashkil etgan.

Xiva xonlari Xurosonni talashqa yordam berib turg'on, talab olib kelgan g'animat mollaridan o'zlariga beshdan biri olg'onlar. Rusiya vakili Muravyov: "Xivada o'ris qullarining boshqalardan ustun bo'lg'onlig'ini yozadi. Bular chaqqon, kuchli bo'lg'onig'a, hammadan qimmat soltiladi hatto bir ming".

*Po'lat Soliev.*

*"Maorif va o'qituvchi" jurnali. - 1929. 1-son.  
(O.Z.)*